

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

3-son (2021-yil)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 3

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 3, 2021

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решения ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике и психологии**.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

3, 2021

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Deputy Editor: Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

Editor: Doctor of Pedagogical Sciences(DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraine)

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	7
Azizxon RAXMONOV. K вопросу о проектной культуре будущих учителей	7
Hikmat BOBOMIRZAYEV, Sevara SUVONOVA. Yangi O‘zbekistonni qurishda zamonaviy o‘qituvchilarning o‘rni	11
Maral KADIROVA. Talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarni takomillashtirish asoslari	15
Aziza MIRZARAQIMOVA. Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	20
Nargiz MAHMUDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimni baholashda jahon tajribasi	25
Akram SOXIBOV. Пути совершенствования механизмов применения интерактивных методов в педагогическом образовании.....	27
Сабоҳат МУРОДОВА, Умида ЯКУБОВА, Расул ИМОМҚУЛОВ. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилган ўқув вазиятларидан фойдаланиш.....	31
Safibullo ABDULLAYEV. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash.....	35
O‘tkir HAZRATOV, Sevara SOLIBOYEVA. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda interfaol usullarning qo‘llanishi samaradorligini baholash.....	41
Makhfuza RAKHMONOVA. Spiritual and moral heritage of the hadith scientists of the east	45
Шамсиддин НАРЗИЕВ, Гулноза ШАРОПОВА. Влияние интерактивной игры на развитии знаний студентов	49
Nigora RUZIKULOVA. O‘quvchilarning o‘quv materiallari bilan ishlash jarayonida “case-study” metodidan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari.....	54
Gulnora JUMAYEVA. O‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda innovatsion faoliyat	58
O‘g‘iloy SHUKUROVA. Talaba-yoshlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning uzluksizligini ta‘minlash texnologiyasi.....	63
Меҳринисо КОЙИЛОВА. Педагогическая основа здоровьесозидающей функции образования.....	67
Bog‘dagul QARSHIYEVA. Turli mamlakatlarda bilingual ta‘lim berish va ular o‘rtasidagi farqlar (O‘zbekiston, Rossiya, Germaniya misolida).....	72
Bahodirjon SHERMUXAMMEDOV. Yoshlarga g‘oyaviy tarbiya berishning mohiyati va vazifalari.....	78
Dilmurod UMURZOQOV, Nafisa JO‘RAYEVA. Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini.....	81
Gullola KURBANOVA. Oliy ta‘lim muassasalari iqtidorli talabalarining tadqiqotchilik salohiyati ahamiyati	83
Ismatulla TO‘XTAROV. O‘zbek falsafasi: tariximiz kabi qadim, ma‘naviyatimiz kabi teran	88
Ulfat MAHKAMOV, Dilafuz ISMOILOVA, Munisa MALIKOVA. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash	92
Manzura YULDASHEVA. Ajdodlar merosida oilaviy munosabatlar talqini	95
Mavjuda GULAMOVA, Ilhomjon SHUKUROV, Chori XAYRULLAYEV, Brel Anatoliy KUZMICH. O‘zbekistonda aholi salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar, imkoniyatlar va sharoitlar.....	98
Ikromjon TOSHOV. Yaponiyada mahalliy davlat hokimiyat organlarining hujjatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari	101
Madina KARIMOVA. Talabalar o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarishning shaxs xususiyatlariga bog‘liqligi	106
Olimjon XOLOV. O‘quvchi-yoshlarda aksiologik ongning shakllantirishning tarixiy asoslari	109
Najmiddin BAKAYEV, Shahobiddin SHODIYEV, Nargiza BAXRIEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy rivojlantirishning dolzarbligi.....	117
Dilnoza QODIROVA. Kichik maktab yoshi o‘quvchilarida axloqiy-madaniy sifatlarni shakllantirishning o‘ziga xos psixologik jihatlari	121
Shoxrux SALIXOV, Timur SALIXOV. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar bilish faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari.....	124
Shahlola ULUG‘OVA, Rayima NEMATOVA. Tadbirkor ayollarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining o‘ziga xosligi	128
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM	131
Gulnora BO‘RONOVA. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabning boshlang‘ich sinflarida “Robototexnika” to‘garaklarini virtual didaktik vositalar yordamida tashkil etishning universal metodlari	131
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘RGANISH.....	138
Ozoda TURSUNOVA. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanish	138
Dilnoza NAZAROVA. Ассимилированные слова узбекского языка и их выражение в словарях	143
Nargiza G‘ULOMOVA. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda mualliflik korpusini tuzishning afzalliklari.....	149

Shahlola ULUG‘OVA

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

Rayima NEMATOVA

Buxoro davlat universiteti
katta o‘qituvchisi

TADBIRKOR AYOLLARNING BOZOR MUNOSABATLARIGA IJTIMOY- PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Maqolada tadbirkor ayollarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining o‘ziga xosligi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, moslashuv, bozor munosabatlari, ikkilamchi kasbiy faoliyat, motivlar.

В статье речь пойдет об особенностях социально-психологической адаптации женщин-предпринимателей к рыночным отношениям.

Ключевые слова: предпринимательство, адаптация, рыночные отношения, вторичная профессиональная деятельность, мотивы

The article talks about the peculiarity of socio-psychological predisposition of entrepreneurial women to market relations.

Key words: entrepreneurship, adaptation, market relationship, secondary professional activity, motivations

Kirish. Tadbirkor ayollarda bozor munosabatlari, iqtisodiy hayot qadriyatlarini, muvaffaqiyatlari, ularga erishish yo‘llari, usullari va zarur bo‘lganda ikkilamchi kasbiy faoliyat haqidagi real tafakkurni shakllantirish hamda iqtisodiy erkin shaxsni tarbiyalashda ijtimoiy-iqtisodiy fanlar alohida o‘rin tutadi. Chunki shaxsda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy kafolatidir. bozor iqtisodiyotiga yo‘l tutgan davrdan boshlab, tobora ko‘proq kishilar, xususan, xotin-qizlar foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik va mahorat ko‘rsatmoqdalar. Bunday sharoitda o‘z-o‘zidan aniqki, xotin-qizlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida ikkilamchi kasbiy faoliyatni egallab olishga intilish kuchayadi.

Asosiy qism. Rossiyalik mutaxassis A.V. Karpovning yozishicha, xotin-qizlarning bozor sharoitiga moslashuvi jarayoni muammosi, mohiyatan, ishlab chiqarishdagi psixologik va tadbirkorlik boshqaruvi masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Muallifning fikricha, ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan bog‘liq muammolar, tadbirkorlik faoliyatini tanlagan har qanday ayolning ruhiy holati, kechinmalari, tashqi omil ta‘sirini qay darajada hazm qila olishi va bularning tadbirkor ayol ish faoliyati hamda natijasiga ta‘sir qilish darajasida tushuniladi.

Xotin-qizlarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga, xususan, tadbirkorlik faoliyatiga moslashuv jarayoni psixologik bosqichlari aniqlanishini tahlil qilar ekanmiz, o‘z navbatida, mutaxassislarning quyidagi fikr-mulohazalarining guvohi bo‘lamiz.

A.L. Juravlev, Ye.V. Shoroxova, V.A. Xashenko va boshqalar iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy-psixologik dinamikani tadqiq etishar ekanlar, hukumat rahbarlari va mahalliy arboblar fuqarolarni yangi tuzumning mehnat sharoitiga moslashishiga ko‘mak ko‘rsatishida, moslashuv jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iboratligini nazarda tutishi lozim, deb hisoblashadi.

1-bosqich. Bozor munosabatlari sharoitida yangi mehnat egasining tayyorgarlik darajasini aniqlash deganda quyidagilarni tushunish mumkin, ya‘ni aniqlangan daraja mehnat egasi manfaati yo‘lida keyingi amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlarni rejalashtirish, zarur resurslarni qo‘llash, tadbirkorlik faoliyatini tanlagan xotin-qizlarning tajriba sohasidan kelib chiqqan holda ularning qobiliyatlari va malakasi darajasidagi vazifalarni aniqlab olish imkonini beradi. Professional sohadan tashqari tadbirkor ayol (mehnat egasi)ning muloqotga moyilligi darajasini bilish jamiyatning kommunikasiya tarmog‘iga tezroq kirishib ketishini ta‘minlash uchun asos bo‘ladi.

2-bosqich. Orientasiya. O‘zgarishlar jarayonida, xususan, tanlangan yangi faoliyat doirasida xotin-qizlarni ular bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, majburiyatlar bilan tanishtirish. Bu bosqichda amalga oshiriladigan tadbirlarni, o‘z navbatida, quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

Kompaniya asoslari – tashkilot tarixi va hozirgi holati haqidagi asosiy ma‘lumot, strategik rejalar, xodimlar va rahbariyat munosabatlari qoidalari, kasaba uyushmasi faoliyati, mehnat sharoitlari va ish tartibi, ish haqqi belgilash tizimi, korxonadagi ijtimoiy ta‘minot, maishiy xizmat va imtiyozlar.

Mahsulot – korxonada mahsulotlari tarkibi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish tizimi va texnologiyasi, asosiy mahsulot iste‘molchilari va narxi, raqobatdosh mahsulotlar orasida tutgan o‘rni.

Ishlab chiqarish – ishlab chiqarishga oid qarorlar qabul qilish tartibi va xususiyati, tashkilot rejalarini va

loyihalar bilan tanishtirish, ishlab chiqarish jarayonining asosiy tamoyillarini o'rganish, bo'limning asosiy vazifalari va mas'uliyat darajasi, hisobot berish asoslari, mahsulotga yo'nalgan boshqaruv uslubini o'rganish va xarajatlarni hisoblash, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik asoslari.

Sotuvlar – tashkilotning bozordagi ulushi va reklama jarayoni, raqobatdosh tashkilotlarning imkoniyatlari, sotuv agentlarining faoliyati, sotuv uslublari.

Asosiy mehnat ko'nikmalari – aloqa vositalari va texnika jihozlaridan foydalanish bo'yicha mashqlar, muomalada bo'lish xususiyatlari, ish joyining xususiyatlari va talablarini o'zlashtirish, notiqlik san'ati, marketing va moliyaga taalluqli asosiy bilimlar, kasb talabidan kelib chiquvchi qo'shimcha malakalarni shakllantirish mashqlari.

Ushbu matndan ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlardagi ilg'or tashkilotlar tomonidan xodimlarni kasb (zaruriy hollarda ikkilamchi kasb)ga moslashuvini har tomonlama amalga oshirish ta'minlanadi. Ma'lumot, ko'nikma va malaka jihatlarni bunday qamrab olish yangi xodimning tashkilot hayotiga kirib borishini ta'minlaydi va barcha kuch-g'ayratini tashkilot maqsadi yo'lida safarbar etish imkonini beradi.

3-bosqich. Moslashuvni amalga oshirish. Bu o'zgarishlar jarayonida, bozor munosabatlariga o'tishda xotin-qizlarni yangi faoliyatga va jamoada mavjud shaxslararo munosabatlar tizimiga moslashtirish jarayonidir. Bu bosqich doirasida xotin-qizlarning faol harakat qilishi, o'zlarini turli (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo) jabhalarda sinab ko'rishiga imkoniyat yaratish lozim. Tegishli tashkilotlar (masalan, tadbirkor ayollar assosiasiyasi) tomonidan jamiyatning ilg'or xotin-qizlari erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida ma'lumot yig'ib boriladi va faoliyati yuzasidan unga zarur tavsiyalar beriladi.

4-bosqich. Faoliyat ko'rsatish. Shu bosqichda moslashish jarayoni tugaydi va xotin-qizlar hukumat tomonidan berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanishgan holda mustaqil ravishda o'z faoliyatlarini davom ettiraverishadi. Bunda xotin-qizlar o'zlarining tadbirkorlik (mehnat) faoliyati yunalishida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o'zlari yengib o'tish kuchiga ega bo'lishadi. Odatda, xotin-qizlarning bozor talab va muhitiga qo'pol moslashuvi 1,5–5 yillar atrofida amalga oshadi.

Muhokamalar va natijalar. Moslashuv jarayoniga ko'mak ko'rsatish (hukumatning tezkor qo'llab-quvvatlashi) sharoitida esa bu jarayon bir necha oylarda muvaffaqiyatli o'tishi mumkin. Moslashuv jarayonini bu tarzda qisqartirish rivojlanish yo'lidan borayotgan va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan davlat uchun moddiy jihatdan ham ma'lum darajada foyda beradi. B.A. Rayzberg tadqiqotlari natijasiga tayanib, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish mexanizmi bor va u iqtisodiy-psixologik stimullarga, ya'ni jamiyat a'zolarini to'q va xotirjam yashash, obro'ga ega bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish kabi manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi hamda uning negizini shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni belgilab beradi, degan umumiy xulosaga keladi.

Asosiy bosqichda respondentlar tomonidan "Psixologik moslashuvda o'zini-o'zi baholash" metodikasi orqali olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, tadbirkor ayollarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o'rtachadan past, o'rta, o'rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo'lish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini aniqlashning o'zini o'zi baholash strategiyasiga asoslanganligi (n=295)

№	Oraliq ballar ko'rsatkichi	Ijtimoiy-psixologik moslashuv darajalari	XK-SS _{x/q}	K _{x/q}	TR _a	T _q
			n=36	n=124	n=58	n=77
1.	1 balldan 2 ballgacha	quyi daraja	5	9	3	27
2.	3 balldan 4 ballgacha	o'rtachadan past darja	9	14	3	18
3.	5 ball	o'rta daraja	15	69	19	26
4.	6 balldan 7 ballgacha	o'rtachadan yuqori darja	3	19	23	4
5.	8 balldan 10 ballgacha	yuqori daraja	4	13	10	2

Fikrimizcha, yuqorida ajratilgan darajalar bozor munosabatlari sharoitida tadbirkor ayollarning:

- o'zaro munosabatlarga kirishidagi holati;
- mehnat faoliyati davomida uzoq muddatli tashqi va ichki konfliktlarga bormasligi;
- sotsiogen ehtiyojlardan qoniqishi;
- jamiyat (ba'zan referent bo'lmagan guruh) tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan rolli kutilmalarga tayyor bo'lishi;
- ijodiy qobiliyatlarini mustaqil va o'ziga ishongan holda namoyon qila olishini aniqlashda qo'l keladi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv ko'lamini belgilab beradi.

Tadqiqotdan aniqlanishicha, "TR_a" guruhiga mansub respondentlardan 39,6%i bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvning o'rtachadan yuqori darajasini namoyon etishib, ularning mulohaza

yuritishicha, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. "XK-SS_{x/q}" va "K_{x/q}" ijtimoiy guruhlariga mansub sinaluvchilarda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning o'rta darajasi kuzatilib, mos ravishda bu ko'rsatkich 41,7%, 55,6%ni tashkil etdi. Ularning nazarida bozor munosabatlari sharoitida yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ni tanlashga turtki beruvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida iqtisodiy sotsializatsiyaga va jamiyatni sanoatlashtirishga bo'lgan xatti-harakatlarni kuchaytirib, xotin-qizlarni bozor iqtisodiyoti sharoitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvining o'ziga xosligini belgilab beradi. "Tq" guruhiga mansub sinaluvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning quyi darajasini (35,1%) namoyon etishi, o'z navbatida, boshqa guruh a'zolariga nisbatan anchagina yosh, ikkilamchi kasbiy faoliyat sohasida ularga nisbatan kamroq tajribaga ega va mehnatdan tashqari o'qish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. O'qish faoliyati esa o'z navbatida shaxslararo munosabatlar zichligini va ahamiyatliligi (moslashish)ni e'tirof etadi. Natijalarning umumlashgan tahlili shuni ko'rsatyaptiki, mazkur guruh vakillari jamoada, o'z hamkasabalari va yaqinlari nigohida hurmatli va ardoqli bo'lish istagi bilan yashaydilar.

Ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlanilishiga sabab bo'luvchi motivlar va o'zgaruvchan muhitda shaxs moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, xususan, inson tabiiy sharoitni o'zgartira olmasa-da, ammo texnikani mukammallashtirish, faoliyatni strategik loyihalashtirish, mehnat jamoasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish orqali noqulay sharoitda ham xotin-qizlarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvini oshirish mumkin.

O'zgaruvchan olamda ikkilamchi kasbiy faoliyat (yangi mehnat)ga bo'lgan moslashuv – bu subyektning mehnat jarayonida yangi faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlariga moslashishidir, degan ta'rifga sabab bo'ladi va mohiyatiga ko'ra:

a) moslashuvning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jihati xotin-qizlardan bajariladigan ishga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirishni taqozo qiladi;

b) bu xil moslashuvda obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo'lib, kasbiy moslashuvning ob'ektiv omillari sifatida xotin-qizlarning ma'lumoti, malakasi va tajribasi e'tirof etiladi;

d) subyektiv omillar qatoriga esa xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati (kasb)ga bo'lgan munosabati, yangi ish joyidan kutayotgan daromadi va foydasi kiritiladi.

Xulosa. Bozor munosabatlariga moslashish va turli xil holatliy modellar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda egiluvchan yondashuvni qo'llash zarur ekanligini ko'rsatadi. Tadbirkor ayollarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o'rtachadan past, o'rta, o'rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo'lish mumkin va bu darajalar:

a) o'zaro munosabatlarga kirishidagi holati;

b) mehnat faoliyati davomida uzoq muddatli tashqi va ichki konfliktlarga bormasligi;

v) sotsiogen ehtiyojlardan qoniqishi;

g) jamiyat (ba'zan referent bo'lmagan guruh) tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan rolli kutilmalarga tayyor bo'lishi;

d) ijodiy qobiliyatlarini mustaqil va o'ziga ishongan holda namoyon qila olishini aniqlashda qo'l keladi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv ko'lamini belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. Суворова Г.А. Психология деятельности: Учеб. пособие для студентов психологических и педагогических вузов. – М.: "ПЕРСЭ", 2003.

2. Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности. – Ереван, 1988.

3. Китов А.И. Экономическая психология. –М.: "Экономика", 1987.

4. Социально-психологическая динамика в условиях экономических измененей/РАН, Ин-т психологии; Отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова, В.А. Хашченко и др. – М.: "ИП РАН", 1998.

5. Ulugova Sh.M., Akramov A.A. "Tadbirkorlik shaxsi faoliyatida iqtisodiy jarayonlar". "Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness". Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.B - 156-160.

6. Улугова Ш.М., Нематова Р.Р. Воздействие ценностей на приспособление женщин к рыночным отношениям. -Мысль: "Наука" электронный периодический журнал. №6– 1 за 2016.